



SHE'RIYATDAGI AYOL KUCHI

*Toshken tibbiyot akademiyasi talabasi**Abduraxmonova Shahnoza Toxirjon qizi***Kirish**

Zulfiya Isroilova — o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi, o'z ijodi orqali xalqining dardini, umidini va hayotini badiiy ifodalagan shoiradir. Uning asarlari nafaqat adabiyotda, balki ijtimoiy va madaniy hayotda ham muhim rol o'ynagan. Ushbu maqola Zulfiya hayoti, ijodiy faoliyati va uning adabiyotdagi o'rnnini keng yoritadi. Maqola Zulfiya Isroilovaning hayoti, ta'limi, ijodiy faoliyati va adabiy merosini o'z ichiga oladi. Unda shoiraning asarlarining jamiyatdagi ahamiyati, ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o'rni hamda adabiy tahlillari keltiriladi.

Annotatsiya: She'r, adabiy tahlillar, ijodiy faoliyati, ta'lim, adabiy meros, she'riyat, sadoqat, xalqona, sevgi, dard, xalqaro.

O'zbekning go'zal va latofatli shoirasi Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiyligi Degrez mahallasida tavallud topgan. Dastlab boshlang'ich maktabda, so'ng xotin - qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1935-yildan 1980-yilgacha, qariyib o'ttiz tilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan "Saodat" nomli xotin - qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lган. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurban. Biroq ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada 1944-yili mashina halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayrildi. Shoira esa 1996-yilda 81-yoshida vafot etadi. Shoira badiiy ijodga juda erta kirishdi. O'n yetti yoshida "Hayot varaqalari" deb atalmish dastlabki she'riy kitobini chop ettirdi. Uzoq ijodiy umri davomida o'ttizga yaqin she'riy to'plamlar, o'ndan ortiq dostonlar yaratdi. Shoira hammani o'ylatadigan, barcha kishilarga Jaxldor bo'lgan holatlarni she'rga soladi. Shuning uchun ham yozganlari ko'pchilikka manzur bo'ladi. Zulfiyaning ulkan



iste'dodi faqat yurtimizdagina emas balki dunyo miqyosida ham e'tirof etilgan. U - xalqaro "Nilufar" mukofoti sohibasiga aylangan.

Zulfiya Isroilova va Hamid Olimjon o'rtasidagi sevgi va nikoh hikoyasi o'zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan biridir. Ular 1941-yilda turmush qurdilar. Bu davrning, urushning shiddati va hayotdagi qiyinchiliklarga qaramay, ularning o'rtasidagi sevgi, mehr va samimiyat kuchli bo'ldi. Zulfiya va Hamid bir-birining ijodiga ulkan ta'sir ko'rsatdi, ularning sevgi va hamkorligi shoiralarning asarlarida ham o'z aksini topdi. Afsuski, 1944-yilda Hamid Olimjonning vafoti Zulfiyaxonim uchun o'ta og'ir judolik bo'ldi, bu esa uning ijodida o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Zulfiya uchun Hamid Olimjon ham sevimli yor, ham maslahatgo'y do'st, ham ustoz edi. Endi u - yo'q. Yig'lamaslik, g'amga cho'kmaslik imkonsiz. Iroda ojizlik qilmoqda. Atrofda odam ko'p-u, lirik qahramon "yakka-yolg'iz". Chunki uning suygani olamda birgina edi, xolos. Uning ornini bosib, qahramonni yolg'izlikdan xalos eta oladigan odam yo'q. Uning xayoli o'zi bilmagani holda yo'qotganini izlash bilan ovora. Yorini yo'qotganidan dunyoning rangsizlanib qolganini shoira: "Birdan qalbim keksarib", - deya ifodalaydi. Bor-yo'g'i o'ttiz yoshdagi shoiraning dardu hasrati she'rda bandma-band oshib boraveradi: "Qayga ketding, yuragim, Bitdi bardosh va toqat. Suhbatingdir tilagim, Tilda hasratim qat-qat". Ayriliq zo'ridan tili va dilida hasratlar qat-qat bo'lgan mushtipar ayolning ruhiyati ushbu misralarda yaqqol aks etgan.

Ahdida ustuvor va tuyg'ulariga xiyonat qilmagan shoiraning kechinmalari sovimapdi. Alami, hijroni har zumda yangilanib, tobora kuchayib boraveradi. Ro'zg'ori, farzandlari, kitoblari, do'stlari yo'qotgan kishisini qayta-qayta esga solavergani bois quyidagi o'tli satrlar qog'ozga inadi: "Sovush bermaydi menga, Yoqib ketganing olov". Muhabbatning olovi - mangu yongulik qudratga ega. Aql yorning qaytib kelmasligiga iqror bo'lsa ham, ruh bunga ko'nikmaydi, u berahmlik bilan qaytmas bo'lib ketgan yorga talpinaveradi. Sadoqatli shaxsning azoblari tinimsiz davom etaveradi. Ushbu dramatik holat shoiraning shaxsigagina tegishli bo'lsa-da, u kechirgan tuyg'ular chin bo'lgani bois boshqalarga ham begona emas.



Zulfiya ijodiy faoliyatini 1931-yilda "Ishchi" gazetasida boshlangan ilk she'ri bilan boshlagan. Uning birinchi she'riy to'plami "Hayot varaqalari" 1932-yilda nashr etildi. Shoira o'z asarlarida ko'plab mavzularni qamrab oldi, jumladan, sevgi, dard, urush, tinchlik va ayollarning ijtimoiy o'rni.

Ikkinci jahon urushi yillari Zulfiya ijodida muhim davrni tashkil etdi. U "Uni Farhod der edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) va "Hulkar" (1947) kabi asarlarida urush va uning oqibatlarini badiiy ifodaladi. Ushbu asarlarida u nafaqat o'z shaxsiy iztiroblarini, balki xalqining umumiyligini qayg'ularini ham aks ettirdi.

Urushdan keyin, 1950-yillarda, Zulfiya o'z ijodida xalqaro birlik va tinchlik g'oyalariga e'tibor qaratdi. U Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik harakatida faol qatnashdi va ko'plab xorijiy davlatlarga sayohat qildi. Bu sayohatlar uning ijodida yangi g'oyalar va rang-baranglik keltirdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" kabi she'rlarida tinchlik va do'stlik g'oyalarini keng tarqatdi.

Zulfiya Isroilova ijodi o'zbek adabiyotida muhim o'rinni tutadi. U nafaqat she'ra, balki publitsistik maqolalar va adabiy tahlillar bilan ham tanilgan. Uning asarlarida o'zbek ayollarining hayoti, muammolari, ijtimoiy faollik va inson huquqlari haqida chuqur mulohazalar mavjud.

Uning "Yillar, yillar..." (1975) va "Visol" (1972) kabi she'riy to'plamlari uning ijodida yangi yuksalish bosqichini belgilaydi. Bu asarlarda Zulfiya hayotni falsafiy idrok etish tamoyillarini aks ettiradi, insonning ichki kechinmalarini, orzu va umidlarini badiiy ifodalaydi.

Zulfiya, shuningdek, Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganishga katta hissa qo'shdi. U uning "Semurg" yoki Parizod va Bunyod" dostoni asosida qo'g'irchoq teatri uchun "Semurg" pyesasi va "Zaynab va Omon" operasi librettosini yozdi. Bu uning adabiyotdagi o'rnini yanada mustahkamladi.

Xulosa

Zulfiya Isroilova o'zining serqirra ijodi va faoliyati bilan o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan shoiradir. Uning asarlari xalqimizning tarixida, madaniyatida va ijtimoiy hayotida muhim o'rinni tutadi. U nafaqat shoira, balki jamoat arbobi sifatida ham xalqining umidlarini, dardlarini ifodalab, ularga kuch g'ayrat bahsh etib turishi.



Zulfiya Isroilovaning ijodi, shubhasiz, o'zbek adabiyotining kelajagi uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. ushbu maqolani yozib, Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo'ldimki, o'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom manodagi ijodkorlar etishib chiqgan va ularni ichidagi porloq yuzluzlardan biri bu Zulfiyaxonim bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isroilova, Z. (1986). "Temirov". Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
2. Olimjon, H. (1997). "O'zbek she'riyati". Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
3. Zokirova, M. (2015). "Zulfiya Isroilova: Adabiy meros va o'rni". Adabiyot va san'at, 3(5), 45-56.
4. Abdurahmonov, S. (2010). "O'zbek adabiyotining zamonaviy ko'rinishi". Toshkent: Ma'naviyat.
5. Qodirova, N. (2018). "Zulfiya Isroilova: Hayot va ijod". O'zbekiston adabiyoti, 2(4), 12-18.